



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 7 - oktabr

497-10-0-Q/23

Toshkent viloyati hokimiligi

Chinoz tumanidagi yaroqsiz holatdagi obyektni buzish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 405-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-yanvardagi “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4933-sonli Farmoni, Davlat kadastrlari palatasi Toshkent viloyati boshqarmasining 2023-yil 20-iyuldagi 01-09-1728-sonli xatini hamda taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Toshkent viloyati qurilish sohasida hududiy nazorat (QSHN) inspeksiyasining xulosasiga asosan Chinoz tumani, “Xamza” MFY, Sh.Rashidov ko‘chasi, 27-uy manzilida joylashgan obyekt foydalanishga yaroqsiz holatga kelganligi;

Davlat kadastrlari palatasi Toshkent viloyati boshqarmasining 2023-yil 30-avgustdagi 01-09-1962-sonli murojaat xati ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Toshkent viloyati boshqarmasining Chinoz tumani, “Xamza” MFY, Sh.Rashidov ko‘chasi, 27-uy manzilida joylashgan obyekt foydalanishga yaroqsiz holatga kelganligi sababli buzib tashlash to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin.

3. Chinoz tumani hokimligi (B.Alimbekov), Davlat kadastrlari palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi (J.Axrоров) obyektlarni belgilangan tartibda buzilishi uchun shaxsan mas‘ul etib belgilansin.

Bunda:

buzish natijasida yaroqli deb topilgan qurilish materiallarini qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

binolarni buzilishidan bo'shaydigan yer maydonidan kelgusida samarali foydalanish choralarini ko'rsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimi o'rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi



Z.Mirzayev